Bir o'ramda 49m sim bor edi.Bir ish kuni davomida 17m sim qirqib olindi. O'ramda necha metr sim qoldi

2-masala (76 b)

Murodda 4 ta sa'va bor. Akbarda esa undan 3 ta ortiq sa'va bor. Akbarda nechta sa'va bor?

Murodda — 4 ta sa'va

Akbarda — ?, 3 ta ortiq

Yechish:

$$4+3=7$$

Javob: 7

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Murodda 4 ta sa'va bor. Akbarda esa undan 3 ta kam sa'va bor. Akbarda nechta sa'va bor?

Murodda — 4 ta sa'va

Akbarda — ?, 3 ta kam

Yechish:

$$4-3=1$$

Javob: 1

3- masala (78 b) Qovoqning og'irligi 9 kg, tarvuzning og'irligi esa undan 2 kg kam.

Tarvuzning oglrligi qancha?

Qovoq — 9 kg

Tarvuz — ?, 2 kg kam

9		2	=	
---	--	---	---	--

Yechish:

9	-	2	=	7
---	---	---	---	---

Javob: 7

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Qovoqning og'irligi 9 kg, tarvuzning og'irligi esa undan 2 kg ortiq.

Tarvuzning oglrligi qancha?

Qovoq — 9 kg

Tarvuz — ?, 2 kg ortiq

$$\boxed{9} \quad \boxed{\phantom{0}} \quad \boxed{2} \quad \boxed{=} \quad \boxed{\phantom{0}}$$


Yechish:

$$\boxed{9} \quad \boxed{+} \quad \boxed{2} \quad \boxed{=} \quad \boxed{\textbf{11}}$$

Javob: 11

8-masala ( bet)

Olmali yashik 10 kg, nokli yashik esa undan 3 kg yengil. Nokli yashikning og'irligi qancha?




Yechish:

$$10 - 3 = 7$$

Javob: 7

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Olmali yashik 10 kg, nokli yashik esa undan 3 kg og'ir. Nokli yashikning og'irligi qancha?



Yechish:

$$10 + 3 = 13$$

Javob: 13

10-masala ( bet). Bir likopchada 8 ta, ikkinchi likopchada birinchidagidan 2 ta ortiq anor bor. Ikkinchi likopchada nechta anor bor?

1— 8 ta anor

2 — ?, 2 ta ortiq

8		2	=		
---	--	---	---	--	--

Yechish:

8	-	2	=	1	0
---	---	---	---	---	---

Javob: 10

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Bir likopchada 8 ta, ikkinchi likopchada birinchidagidan 2 ta kam anor bor.

Ikkinchi likopchada nechta anor bor?

1— 8 ta anor

2 — ?, 2 ta kam

8		2	=	
---	--	---	---	--

Yechish:

8	-	2	=	6
---	---	---	---	---

Javob: 6 ta

2-masala ( 80 b)

Chelakka 10 l suv ketadi. Agar chelakda 6 l (4 l, 7 l ) suv bo'lsa, unga yana necha litr suv quyish mumkin?

Yechish:

$$10-6=4$$

$$10-4=6$$

$$10-7=3$$

Javob: 4 l, 6 l, 3 l.

9-masala (81 bet)

Bir bidonda  $6\ l$ , ikkinchisida undan  $2\ l$  ortiq sut bor. Ikkinci bidonda necha litr sut bor?

Yechish:

$$6+2=8$$

Javob: 8

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Bir bidonda  $6\ l$ , ikkinchisida undan  $2\ l$  kam sut bor. Ikkinci bidonda necha litr sut bor?

Yechish:

$$6-2=4$$

Javob:  $4\ l$ .

2- masala (82 bet) Bochkada 10 chelak suv bor edi. Gullarni sug'orish uchun 7 chelak suv olindi. Bochkada necha chelak suv qoldi?



Yechish:

$$10-7=3$$

Javob: 3 chelak suv

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Bochkada 10 chelak suv bor edi. Gullarni sug'orish uchun 7 chelak suv qo'shildi. Bochkada necha chelak suv qoldi?

Yechish:

$$10+7=17$$

Javob: 17 chelak suv

9-masala (84 bet)

Bir likopchada 10 ta, ikkinchi likopchada birinchidagidan 3 ta kam konfet bor. Ikkinci likopchada nechta konfet bor?

1— 10 ta konfet

2— ?, 3 ta kam

		-	3	=	
--	--	---	---	---	--

Yechish:

1	0	-	3	=	7
---	---	---	---	---	---

Javob: 7

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Bir likopchada 10 ta, ikkinchi likopchada birinchidagidan 3 ta ortiq konfet bor. Ikkinci likopchada nechta konfet bor?

1— 10 ta konfet

2— ?, 3 ta ortiq

.	.	+	3	=	.	.
---	---	---	---	---	---	---


Yechish:

1	0	+	3	=	1	3
---	---	---	---	---	---	---

Javob: 13

1-masala (89 bet)

Karim 6 sm, Akrom esa undan 1 sm uzun kesma chizdi. Akrom chizgan kesmaning uzunligi necha santimetр?



Yechish:


$$6 \text{ sm} + 1 \text{ sm} = 7 \text{ sm}$$

Javob: 7 sm

Masala shartini o'zgartiramiz:

### **Masala:**

Karim 6 sm, Akrom esa undan 1 sm uzun kesma chizdi. Akrom chizgan kesmaning uzunligi necha santimetр?



Yechish:

$$6 \text{ sm} - 1 \text{ sm} = 5 \text{ sm}$$

Javob: 7 sm

### 8-masala (90 bet)



Chinnigullar va atirgullar hammasi bo'lib nechta? Chinnigullar atirgullardan nechta ko'p? Atirgullar chinnigullardan nechta kam?

Yechish:

$$6-3=3$$

Javob: 3

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Chinnigullar va atirgullar hammasi bo'lib nechta? Chinnigullar atirgullardan nechta ko'p? Atirgullar chinnigullardan nechta kam?

Yechish:

$$6+3=9$$

Javob: 9

### 2-masala (102 bet)

Ertalab do'konda 20 ta televizor bor edi. Kechgacha 10 ta televizor sotildi. Nechta televizor qoldi?

Yechish:

$$20-10=10$$

Javob: 10 ta

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Ertalab do'konda 20 ta televizor bor edi. Do'konga yana 10 ta televizor olib kelindi. Do'konga nechta televizor bo'ldi?

Yechish:

$$20+10=30$$

Javob: 30 ta

9-masala (103 bet)

Akbarning 10 ta kanareykasi bor edi. 0'rtog'i Salimning ham shuncha kanareykasi bor. Ikka lasining kanareykasi nechta?

Yechish:

$$10+10=20$$

Javob: 20

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:**

Akbarning 10 ta kanareykasi bor edi. 0'rtog'i Salimning 6 ta kanareykasi bor. Ikka lasining kanareykasi nechta?


Yechish:

$$10+6=16$$

Javob: 10

4-masala (106 bet)

Avtobusda 36 yo'lovchi ketayotgan edi. Birinchi bekatda 6 yo'lovchi tushib qoldi. Avtobusda nechta yo'lovchi qoldi?



Yechish:

$$36-6=30$$

Javob: 30

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:**

Avtobusda 36 yo'lovchi ketayotgan edi. Birinchi bekatda 6 yo'lovchi chiqdi. Avtobusda nechta yo'lovchi bo'ldi?

Yechish:

$$36+6=36$$

Javob: 36

5-masala (108 b)

Do'konga 59 ta idishda sut keltirildi. 9 ta idishdagi sut sotildi. Nekhta idishda sut qoldi?

Yechish:

$$59-9=50$$

Javob: 50

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Do'konga 59 ta idishda sut keltirildi. 20 ta idishdagi sut sotildi. Nekhta idishda sut qoldi?

Yechish:

$$59-20=39$$

Javob: 39

4-masala (116 bet)

Birinchi jo'yakda 40 ta, ikkinchi jo'yakda esa 20 ta bodring bor. Ikkala jo'yakda nechta bodring bor?

Yechish:

$$40+20=60$$

Javob: 60

Masala shartini o'zgartiramiz:

**Masala:** Birinchi jo'yakda 40 ta, ikkinchi jo'yakda esa 20 ta kam bodring bor. Ikkala jo'yakda nechta bodring bor?

Yechish:

$$40-20=20$$

Javob: 20

Birinchi sinfda bir ammali masalalardan sharti o'zgartirilib bir amal bilan yechiladigan masalalar xosil qilingan.

Ikki ammali masalalardan sharti o'zgartirilib yana Ikki amal bilan yechiladigan masalalar xosil qilishni o'rgatish yaxshi samara beradi. Bunga namunalar keltiramiz: Bunga darslikdan na'munalar keltiraylik:

4-masala(132bet)

Bir metro vagonida 48nafar, ikkinchisida undan 17nafar kam ylovchi bor. Ikkala vagonda necha nafar yo'lovchi bor?

Yechish: 1) Ikkinci vagonda nechta yo'lovchi bor?

$$48-17=31$$

2) Ikkinci vagonda nechta yo'lovchi bor?

$$48+31=79\text{ta}$$

Javob:79ta

Masala shartini o'zgartiraylik

Masala: bir metro vagonida 31nafar,ikkinchisida undan 17nafar ortiq yo'lovchi bor. Ikkinci vagonda nechta yo'lovchi bor?

Yechish: 1)Ikkinci vagonda nechta yo'lovchi bor?

$$31+17=48\text{ta}$$

2) Ikkinci vagonda nechta yo'lovchi bor?

$$31+48=79\text{ta}$$

2-masala (133bet)

Bolalar oromgohida 58nafar o‘g‘il bola ,undan 28nafar kam qiz bola dam oldi. Oromgohda hammasi bo‘lib nechata o‘quvchi dam oldi?

Yechish: 1) qancha qiz bola dam oldi?

$$58-28 =30\text{ta}$$

2) oromgohda hammasi bo‘lib nechata o‘quvchi dam oldi?

$$58+30=88\text{ta}$$

Javob:88ta

SHartini o‘zgartiraylik.

Bolalar oromgohida 30nafar qiz bola ,ulardan 28nafar ko‘p o‘g‘il bola dam oldi.Oromgohda hammasi bo‘lib necha o‘quvchi dam oldi?

Yechish: 1) Qancha o‘g‘il bola dam oldi?

$$30+28=58\text{ta}$$

2)Qancha o‘quvchi dam oldi?

$$58+30=88\text{ta}$$

Javob: 88ta

3-masala (134bet)

Maktab sport to‘garagi uchun 39ta futbol va basketbol to‘pi keltirildi.Ulardan 19tasi futbol to‘pi bo‘lsa, nechta basketbol to‘pi keltirilgan?

Yechish: 1) Nechta basketbol to‘pi keltirilgan?

$$39-19=20\text{ta}$$

Javob:20ta

Shartini o‘zgartiramiz.

Masala: Maktab sport to‘garagi uchun 39ta futbol va basketbol to‘pi keltirildi. Ulardan 20tasi basketbol to‘pibo‘lsa, nechta futbol to‘pi keltirilgan?

5) Nechta futbol to‘pi keltirilgan?

$$39-20=19\text{ta}$$

Javob: 19ta.

4-masala. (136bet)

Uy qurilishida 28nafar g‘isht teruvchi ,12nafar bo‘yoqchi ishladi. Qurilishda hammasi bo‘lib necha nafar ishchi ishladi?

Yechish:            1)  $28+12=40$ ta

Javob: 40ta.

Masala shartini o‘zgartiramiz.

Masala:    Uy qurilishida 28nafar g‘isht teruvchi, undan 16nafar kam bo‘yoqchi ishladi. Qurilishda hammasi bo‘lib necha nafar ishchi ishladi?

Yechish:            1) Qancha bo‘yoqchi ishladi?

$28-16=12$ ta.

6) Qurilishda hammasi bo‘lib necha nafar ishchi ishladi?

$28+12=40$ ta

Javob: 40ta

3-masala. (137bet)

Bir o‘ramda 49m sim bor edi.Bir ish kuni davomida 17m sim qirqib olindi. O‘ramda necha metr sim qoldi?

Yechish:             $49-17=32$ metr

Javob: 32metr

Masala shartini o‘zgartiramiz.

4-masala      bir o‘ramda 49m sim bor edi. Bir ish kunida dastlab 17m sim, so‘ngra 15m sim qirqib olindi. O‘ramdan necha metr sim qirqib olindi?

Yechish:            1) Bir ish kunida necha metr sim qirqib olindi?

$17+15=32$

7) O‘ramdan necha metr sim qirqib olingan?

$49-32=17$

5-masala(137bet)

Bolalar bog‘chasiga 50kg piyoz va undvn 27kg kam kartoshka olib kelindi. Bog‘chaga hammasi bo‘lib, qancha sabzavot olib kelingan?

Yechish:            1)Qancha kartoshka olib kelindi?

$$50-27=23$$

2) Bog‘chaga hammasi bo‘lib,qancha sasabzavot olib kelingan?

$$50+23=73$$

9-masala (138bet)

39kg meva bor edi. Murabbo tayyorlash uchun 20kg,sharbat tayyorlash uchun 9kg meva ishlatildi.Necha kilogramm meva ortib qoldi?

Yechish: 1)Murabbo va sharbatga qancha meva ishlatildi?

$$20+9=29\text{kg}$$

2)Qancha meva ortib qoldi?

$$39-29=10\text{kg}$$

Javob: 10kg

SHartini o‘zgartiramiz.

Murabbo va sharbat uchun 29kg ishlatilgandan so‘ng 10kg meva qoldi.Dastlab qancha meva bo‘lgan?

Yechish:

$$10+29=39\text{kg}$$

Javob: 39kg

2-masala. Maktabdagi musiqa to‘garagi 34 nafar, tasviriy san’at to‘garagiga esa undan 16 nafar ortiq o‘quvchi qatnashmoqda.Ikkinchis to‘garakka necha nafar o‘quvchi qatnashyapti?

Yechish:

1)Tasviriy san’at to‘garagiga nechta o‘quvchi qatnashyapti?

$$34+16=40$$

2)Ikkala to‘garakka necha nafar o‘quvchi qatnashyapti?

$$40+34=74\text{ta}$$

Masala shartini o‘zgartiramiz.

Maktabdagi tasviriy san’at to‘garagiga 40nafar, musiqa to‘garagiga undan 16nafar kam o‘quvchi qatnashmoqda. Ikkala to‘garakka necha nafar o‘quvchi qatnashyapti?

Yechish:

1) Musiqa to‘garagiga qancha o‘quvchi qatnashmoqda?

40-16=34ta

2) Ikkala to‘garakka necha nafar o‘quvchi qatnashyapti?

40+34=74ta

Javob: 74ta

1-masala (153bet)

Maktab maydonchasida 30 nafar o‘quvchi o‘ynayotgan edi. Ulardan 7 nafar o‘g‘il bola, 3 nafar qiz bola sinfga kirib keldi. Maydonchada qancha o‘quvchi qoldi?

Yechish: 1)Qancha qiz va o‘g‘il bola sinfga kirib keldi?

7+3=10 nafar

2) Maydonchada qancha o‘quvchi qoldi?

30-10=20

Javob 20ta

Masala shartini o‘zgartiramiz.

**Masala.** Maktab maydonchasida 20 nafar o‘quvchi o‘ynayotgan edi. Ularga yana 7 nafar o‘g‘il bola, 3nafar qiz bola qo‘sildi.Maydonda qancha o‘quvchi bor?

Yechish: 1)Qancha o‘g‘il va qiz bola qo‘sildi?

7+3=10

2)Maydonda qancha o‘quvchi bor?

20+10=30

Javob: 30 ta

Demak, masaladan masala xosil qilish o‘quvchilarni matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini ortiradi va dars samaradorligini oshiradi.

## 2.2- § Masalalar Yechish orqali ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish .

Og‘zaki hisoblash madaniyati boshlang‘ich sinf o‘quvchisidan arifmetik amallarni tez bajarish va masalalar Yechish jarayonida sonlarni xayolan fazoga joylashtirish mahoratini talab qiladi. Fazo idroki bilan fazo tafakkuri tushunchasi o‘zaro bog‘liq. Bunday turdag‘i masala Yechish mahorati asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qiziquivchan, o‘quvchilar uchun hayotiyligini ko‘rsatuvchi masalalar tanlaydilar. Masala tuzish va teskari masala tuzish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini

yanada faollashtiradi va ular tomonidan katta ishtiyoq bilan bajariladi hamda ularning faoliyati intensivligi va mahsuldorligi ortadi. Quyidagi taklif etilgan masalalar o'quvchilar tafakkurini, tasavvurini shakllanishiga va rivojlanishiga zamin yaratadi.

Masala. Konsert zalida 650 ta joy, 6 qator bor. Har bir qatorda nechta joy bor? ***Yoki bir oz murakkabroq:*** konsert zalida 650 ta joy va 27 qator bor. Qatorlarning bir nechtasi to'liq emas. Ularda esa 56 ta joy mavjud.

Har bir qatorda nechta joy bor?

Masala. Uchta bir xil 16 qavatlari bino qurilgan, har bir qavatda 20 ta xonodon bor. Uchta uyda 180 ta bir xonali, 270 ta ikki xonali xonodon bor. Uchala uyda nechta uch xonali xonodon bor?

O'quvchilarga turli usullar bilan yechimni topish taklif qilinadi. Ko'paytirish uchun o'rniga qo'shish qonunidan va sondan miqdor chiqarish qoidalaridan kelib chiqib, o'quvchilar masala yechimining 9 usulini topib yechadilar.

Matematikani chuqr o'rganiladigan boshlangich sinflarda tenglamalar bilan yechiladigan masalalar ham tavsiya etiladi.

Masala. Do'konga ikki va uch g'ildirakli 36 ta velosiped olib kelindi. Agar ularning g'ildiraklar soni jami 91 ta bo'lsa, unda nechta uch g'ildirakli va nechta ikki g'ildirakli velosipedlar olib kelungan?

Masala. Jami xonadonlar 28 ta, xonalar soni esa - 88 ta. Nechta 4 xonali va nechta 3 xonali xonadonlar bor?

Masala. Yo'l nazoratchilari uchun jami 10 ta "Tiko" va ikki g'ildirakli motosikl olib kelindi. Agar ularning g'ildiraklar soni 62 ta bo'lsa, nechta "Tiko" va nechta motosikl olib kelungan?

Bunday masalalarni ko'pchilik hollarda ikki o'zgaruvchili tenglama yordamida Yechishga harakat qilishadi, lekin boshlang'ich sinfda bunday masalalar bir o'zgaruvchili tenglamalar bilan Yechishni talab etadi.

Masala yana ham murakkablashtiriladi. Ular agar tenglamalar asosida yechilsa, yana ham foydaliroq bo'ladi.

**Masala.** Tomoshabinlar zalining har bir qatorida teng miqdorda 750 ta stul bor. Agar har bir qatorga yana 5 tadan stul qo'yib, qatorlar sonini 4 taga kamaytirilsa, unda tomoshabinlar zalistagi stillarning umumiy miqdori avvalgidan  $1/25$  ga ortadi. Har bir qatorda nechta stul bor edi?

**Masala.** Sayohatchi jami 939 km yo'l bosdi. U poyezdda 18 soat, paroxodda 6 soat, avtomobilda esa 5 soat yurdi. Poyezd tezligi paroxod tezligidan 16 km/s, avtomobil tezligidan 25 km/s ortiq. Avtomobilning tezligini toping.

**Masala.** Ekspeditsiya 4550 km ga teng yo'lni uch qismga bo'lgan holda bosib o'tdi. Birinchisi 450 km qisqaroq, uchinchisi esa birinchisi va ikkinchisi birga olingandagi masofadan 2 marta ortiq. Yo'lning oxirgi qismi 74 soatda, qisman 35 km/s tezlik bilan poyezdda, qisman 45 km/s tezlik bilan artomobilda bosib o'tilgan. Avtomobilda necha soat yurilgan?

Bunday o'qitishda boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'quvchilar bilan masalaning mumkin bo'lgan barcha yechimlarini qidirishga, barcha teskari masalalarni tuzishga yo'naltiradi. Bunda o'quvchilar qancha teskari masala tuzish mumkinligini oldindan biladilar — birinchi masala shartida berilganlar qancha bo'lsa, shuncha misol keltiramiz. **Masala.** Poyezd A bekatidan B bekatiga qarab harakat qilmoqda. Birinchi bekatdan S bekatigacha 240 km masofani poyezd 60 km/s tezlik bilan bosib o'tdi. Qolgan S bekatidan B bekatigacha bo'lgan yo'lni avvalgi tezlikda 1 soat kam vaqt sarflab bosib o'tdi. S bekatdan B bekatgacha bo'lgan masofani toping?

Masala ikkita Yechish usuliga ega — 3 (rasmiy yo'l) va 1 amalli (tezlik tushunchasi mohiyatiga tayanish bilan). Haqiqatdan, boshlang'ich sinf o'quvchilari tezlik, vaqt, masofa o'rtasidagi munosabatlardan foydalanib, quyidagi amallar ketma-ketligini yozadilar:

- 1)  $240 : 60 = 4(\text{s})$
- 2)  $4 - 1 = 3 (\text{s})$
- 3)  $60 \cdot 3 = 180 (\text{km})$ .

Shunda o'quvchilarni e'tiborini tezlik tushunchasi mohiyatga qaratib, yanada qisqa yechim izlashga yo'naltiriladi.

O'quvchilar yechimni  $240-60 = 180 (\text{km})$  ko'rinishida yozadilar. Bunda qolgan yo'lni poyezd avvalgi tezlikda 1 soat kam vaqt sarflab o'tgan, 1 soatda 60 km yurishi hisobga olinadi. Masala Yechishda chizmadan foydalaniladi.

Berilgan ushbu masala uchun uchta teskari masala tuziladi (masala shartida berilgan uchta kattalik mavjud).

**1-teskari masala.** Poyezd A bekatidan B bekatga qarab harakat qilmoqda. Birinchi A bekatidan S bekatgacha 240 km. S bekatdan B bekatgacha masofa 180 km. Poyezd yo'lning birinchi qismini bosib o'tish uchun ikkinchi qismiga nisbatan bir soat ko'p vaqt sarfladi. Agar poyezd yo'lning ikkala qismida ham bir xil tezlikda harakatlangani ma'lum bo'lsa, uning tezligi qanday bo'lgan?

Masala 2 amal bilan yechiladi:  $(240-180 = 60 \text{ km}) \quad 60 : 1 = 60 (\text{km/s})$ ,

«Tezlik» tushunchasiga tayanib ish ko'rilsa, 1 ta amal bajarish kifoya (faqt birinchisi, chunki, bu  $60 \text{ km}$  shartga ko'ra 1 soatdan bosib o'tilgan va u tezlik hisoblanadi).

*2-teskari masala. Poyezd A bekatidan B bekatga qarab harakatlanib, S bekatida to'xtab o'tadi. S bekatidan B bekatgacha  $180 \text{ km}$ . Poyezd ikkinchi yo'lga nisbatan 1 soat kam sarflaydi. Ikkinci yo'lda ham poyezd tezligi  $60 \text{ km/s}$  bo'lsa, A bekatidan S bekatgacha bo'lgan masofani toping.*

Masala uch amal bilan yechiladi:

$$1) 180 : 60 = 3 \text{ (s)}$$

$$2) 3 + 1 = 4 \text{ (s)}$$

$$3) 60 \cdot 4 = 240 \text{ (km),}$$

«Tezlik» tushunchasi mohiyati tayanilsa, 2 ta amal yetarli ( $60 \cdot 1 = 60 \text{ (km)}$ )  $180 + 60 = 240 \text{ (km)}$ ) yoki bitta amal bilan:  $180 + 60 = 240 \text{ (km)}$ , bunda shartga ko'ra poyezd bir soatda  $60 \text{ km}$  yo'l bosib o'tishi hisobga olinadi.

**3-teskari masala.** Poyezd  $A$  dan  $B$  ga qarab harakat qilmoqda. Birinchi 4 bekatdan S bekatgacha masofa  $240 \text{ km}$  ni  $60 \text{ km/s}$  tezlik bilan bosib o'tdi. Qolgan  $110 \text{ km}$  ni ham  $60 \text{ km/s}$  tezlik bilan bosib o'tadi. Birinchi yo'lni bosib o'tish uchun ikkinchisiga nisbatan qancha vaqt sarflagan?

Masala 3, 2, 1 amal bilan yechilishi mumkin («tezlik» tushunchasiga tayanib):

$$240 : 60 = 4 \text{ (s)}$$

$$180 : 60 = 3 \text{ (s)}$$

$$4 : 3 = 1 \text{ (s)}$$

$$240 - 180 = 60 \text{ (km)}$$

$$60 : 60 = 1 \text{ (s)}$$

$$240 - 180 = 60 \text{ (km).}$$

Bu  $60 \text{ km}$  shartga ko'ra 1 soatda bosib o'tilgan, ya'ni tezlik.

O'quvchilar faoliyatinitakomillashtirishda bolalar tomonidan predmet va voqeliklarni yaxlit tasavvur qilish uchun sharoit yaratish, ular ongida tevarak-atrof haqida yaxlit tushuncha shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldida turgan asosiy maqsadlardan biri bo'lib qolishi kerak.

Muammoli masalalarni Yechishda faqat savollarga javob berish uchun hisob-kitob qilishning o'zi yetarli emas. Buning uchun matndagi taqqoslash, imkoniyatni, dalillarni isbotlash, qonuniylikni aniqlash kabi masalalarni tahlil etish ham talab etiladi.

Quyidagi muammoli masala va topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.

1. Muammoli xususiyat berilgan savollarga oid masala va topshiriqlar.

«Nechta?» degan savolni boshqacha, «Yetadimi?», «Sig'adimi?», «Joylashadimi?» «Qonuniyatni toping», «Qanday oqilona bajarish mumkin?» kabi savollar bilan almashtirish mumkin. Masalan: «Sut sog'uvchi oitita irdan 12 litrdan sut sog'ib oldi. Bu sut har biri 32 litrli ikki bidonga sig'adimi?»

Yechimi:

$$12 \cdot 6 = 72 \text{ (I)} - 6 \text{ ta sigirdan}$$

$$32 \cdot 2 = 64 \text{ (I)} - 2 \text{ bidonga sog'gan;}$$

$$72 \text{ I} > 64 \text{ I}$$

Javob: sut 2 bidonga sig'maydi. Yoki, «Karton qog'ozdan tomonlari  $6 \times 4$ sm o'lchamli to'g'ri to'rtburchak tayyorlanadi. Tomonlari 5 sm bo'lgan kvadrat shaklidagi tuynukni ushbu to'g'ri tburchak yordamida yopish mumkinmi?»

## **2.Yangi ko'rinishdagi aniq amaliy masalalar.**

Ularga qo'yilgan savollardan ham muammoli vaziyat yaratiladi. Mazkur holatda muammoli hisoblangan masalani turli usullar yordamida Yechish orqali to'g'ri to'rtburchakning perimetri bilan o'quvchilarni tanishtirish bo'yicha ishni boshlash mumkin. Masalan: «Turli usullar bilan pochta konvertining perimetrini hisoblab chiqing».

Boshqa bir misol: Ikkinci sinf darsligida quyidagi ko'rinishdagi mavhum misollarni Yechish bilan boshlash tavsiya etiladi. Bunda ikki amallli misollar ko'rsatilganda, qavssiz ifodalarda amallarni bajarish tartibi to'g'risidagi qoidani tanishtirish nazarda tutilgan:

$$65-21 \cdot 3; \quad 40-4 \cdot 7; \quad 27 \cdot 3-4 \cdot 2; \quad 10 \cdot 2 + 18; \quad 35 + 6 \cdot 4$$

O'quvchilardan ifodalarda qanday amallar ko'rsatilganini aytib berish so'raladi, so'ngra amallarni bajarish tartibi ma'lum qilinadi:

Bunday ifodalarning qiymatini topish uchun amallar tartibi bo'yicha, avvalo, ko'paytirish va bo'lishni, so'ngra qo'shish va ayirishni bajarish lozim ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Xuddi o'sha material bo'yicha ishni matnli topshiriqni bajarishdan boshlash mumkin. Masalan: «Oshxonaga har biri 10 kilogrammdan bo'lgan 2 yashik olma va 18 kg uzum keltirishdi. Oshxonaga jami qancha meva keltirishgan?» Topshiriqni bajarish uchun  $10 \cdot 2 + 18$  ko'rinishdagi ifoda tuziladi va oldin ko'paytirish ( $10 \cdot 2$ ), keyin qo'shish amali bajarilishi aytib o'tiladi. O'quvchilarga shu kabi masalalarni Yechishda avvaliga qo'shish amalini bajarish noto'g'ri ekanligini ko'rgazmali ravishda namoyish etish mumkin.

Ya'ni, awaliga  $2+18$  bajarilsa, yashiklarga kilogrammlar qo'shilib noto'g'ri yechimga olib keladi.

### **3. Turli usullarda Yechish mumkin bo'lgan masalalar.**

Agar aynan bitta masalani Yechishning turli usullari mavjud bo'lgan (yoki topilsa), ulardan nisbatan ratsional (to'g'rirog'ini) bo'lganini tanlash (yoki izlash) muammosi tug'iladi. Masalalarni turli usullarda Yechish umumlashtirishga nisbatan qobiliyatni, fikrlash jarayoniga moslashish, oddiylikka intilish, qiyinchiliklarni yengishda tirishqoqlik va qat'iylik kabi matematik fikrlashning zarur tarkibiy qismlarini ishlab chiqaradi. Masalan: «To'g'ri to'rtburchakning bir tomoni 5 sm, perimetri esa 14 sm ga teng. To'g'ri to'rtburchakning ikkinchi tomonini toping».

1-usul:

$$1) 5 + 5 = 10 \text{ (sm)}$$

$$2) 14 - 10 = 4 \text{ (sm)}$$

$$3) 4 : 2 = 2 \text{ (sm)}$$

2-usul:

$$1) 14 : 2 = 7 \text{ (sm)}$$

$$2) 7 - 5 = 2 \text{ (sm)}$$

«540 tonna ko'mirni uchta mashinada olib kelish kerak. Agar ularning har biriga 3 tonnadan ko'mir ortilib kuniga 5 marta qatnov bo'lsa, shuncha ko'mirni necha kunda tashish mumkin?»

Ushbu masalani Yechishning mumkin bo'lgan usullarini keltiramiz:

1- usul:

$$1) 540 : 3 = 180 \text{ (t)} - \text{bitta mashinada tashish kerak}$$

$$2) 5 \cdot 3 = 15 \text{ (t)} - \text{kuniga bitta mashinada tashiladi}$$

$$3) 180 : 15 = 12 \text{ (kun)} - \text{hamma ko'mir tashiladi.}$$

2-usul:

$$1) 5 \cdot 3 = 15 \text{ (t)} - \text{kuniga bitta mashinada tashiladi}$$

$$2) 15 \cdot 3 = 45 \text{ (t)} - \text{har kuni uchta mashinada tashiladi}$$

$$3) 540 : 45 = 12 \text{ (kun)} - \text{hamma ko'mir tashiladi.}$$

3-usul:

1)  $3 \cdot 3 = 9$  (t) - uchta mashina bir marta qatnovda tashiydi

2)  $9 \cdot 5 = 45$  (t) - bir kunda uchta mashina tashiydi

3)  $540 : 45 = 12$  (kun) - hamma ko'mir tashiladi

#### **4. Mazmunan bir xil, ammo yechilish usullari turlicha bo'lgan masalalar.**

Bunday masalalarning ko'pchilik qismiga xos xususiyat - bu ularning turli variantlarda yechilishidir. O'quvchilar ko'pqiymatli javobga ega bunday masalalar bilan kundalik hayotda tez-tez duch keladilar. Bu ayni masalalarni Yechishga ko'p variant bilan, tadqiq bilan yondoshishga o'rgatadi, shuningdek, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashida muammolarni Yechish *ko'nikmasi hosil bo'ladi. Masalan, bir ko'chada 11 ta uy joylashgan boshqasida 13ta. Ikkita ko'chada jami nechta uy bor? Masala bir qancha yevhimga ega bo'ishi mumkin. Bunda hammasi ikkita umumiy elementlar to'plami bor yoki yo'qligiga bog'liq. Agar bor bo'lsa, ular qancha?*

#### **5. Sharti yetarli bo'lмаган масалалар.**

Bu xil masalalarni Yechish uchun yetarli bo'lмаган ма'lumotlarni topish lozim, ya'ni muammoli xolatni Yechish kerak. Masalan:

a) «Karim yoz bo'yi ... ga o'sdi» gapdagi nuqtalar o'rniغا mos keluvchi o'lchamni qo'ying: 5 sm, 5 dm, 5 m»;

b) «o'quvchi kesmalar uzunligini o'lchab, o'lchov birligini yozishni esdan chiqarib qo'ydi, ularni yozing».

#### **6.Ortiqcha ma'lumotga ega masalalar.**

«0'quvchilar jamoa xo'jaligiga kartoshkani terib olishda ko'maklashishdi. Birinchi kuni ular 40 savat, ikkinchi kuni shundan 10 savat ko'p kartoshka terishdi. Uchinchi kuni o'quvchilar 35 savat kartoshka terib olishdi. Uch kun ichida ular jami 125 savat kartoshka terishdi. O'quvchilar ikkinchi kuni necha savat kartoshka terishgan?»

Masalaning qisqacha bayoni:

1-kun - 40 savat

2-kun -?, 10 savat ko'proq

125 savat

3-kun - 35 savat

Masala shartidan ko'rini turibdiki, bu yerda 35 va 125 sonlari ortiqcha. O'quvchilar masala shartini shunday o'zgartirish kerakki, bunda faqat uni Yechish uchun zarur bo'lган son qolish kerak xolos.

Uni Yechishgandan so'ng, o'quvchilarga ushbu masalani boshqacha tuzib xavola etish mumkin:

a)agar savol quyidagicha bo'lsa: «O'quvchilar uch kunda necha savat kartoshka terishdi?», unda masala shartida qaysi sonlar qolishi lozim?

b)masala shartini shunday o'zgartiringki, unga «O'quvchilar uchinchi kun necha savat kartoshka terishdi?» degan savolni kiritish mumkin bo'lsin.

## ***7. Butunlay noto'g'ri ma'lumotga ega masalalar.***

Didaktikada bunday masalalardan foydalanish borasida ikki xil fikr mavjud. Ba’zi birlari o’quvchilarga birorta noto’g’ri narsani havola etish mumkin emas desa, ikkinchilari buning aksini ta’kidlashadilar. Bizning fikrimizcha, noto’g’ri ma’lumot berilgan masalalarni Yechish orqali o’quvchilar o’zlaridagi nazariy bilimlarni amaliyat bilan bog’lashni anglab yetadi. Bu xil masalalar ilgari o’zlashtirilgan bilimni boshqa sharoitda qo’llash, ularni bir tizimga solish imkonini yaratadi. Buning uchun o’quvchilardan tahlil qilish, taqqoslash, klassifikatsiyalash kabi mantiqiy operatsiyalarni bajarish talab qilinadi. Masalan, o’lchov birligini belgilashda qaysi xolatda xatoga yo’l qo’yilgan? Ushbu masalani Yechishda o’quvchilar o’zlarining avtomatizm darajasiga yetgan, mexanik o’lchov ko’nikmalarigagina suyanishi mumkin emas, balki ular kattalik (o’lcham) haqidagi bilimlarini bir tizimga keltirishi va yo’l-yo’lakay quyidagi savollarga javob berishlari kerakdir:

- a) geometrik ob’ektlardan qaysi biri «uzunlikka ega bo’lish» xususiyatiga, qaysi biri «yuzaga ega bo’lish» xususiyatiga ega (1, 3, 6 - ob’ektlar» uzunlikka ega bo’lish» xususiyatiga, 2, 4, 5 - ob’ektlar «yuzaga ega bo’lish» xususiyatiga ega);
- b) «uzunlikka ega» ob’ektlar qanday birlikda o’lchanadi, «yuzaga ega» ob’ektlar-chi? (uzunlikka ega ob’ektlar uzunlikda, yuzaga ega ob’ektlar esa kvadratda o’lchanadi).

Tahlilning fikrlash jarayoni o’quvchilarga masalaga javob berish imkonini beradi.

8. *Predmetlararo mazmundagi masalalar.* Bunday masalalarni bajarish o’quvchilarni boshlang’ich ta’lim fanlaridan olgan bilimlarini qo’llashni talab qiladi. O’quvchilar bilimini mustahkamlash uchun, masalan, ufq tomonlariga bog’liq masala (bu tabiatshunoslikda o’rganilgan) berilishi mumkin. Matematika darsida quyidagi mazmundagi masalani tavsiya etsa bo’ladi: « Agar aeroportdan g’arbiy va sharqiy yo’nalishda bir vaqtda ikkita samolyot uchib chiqsa, 3 soatdan so’ng samolyotlar bir-biridan qanday masofada bo’ladi?»

Tabiatshunoslik va matematika fanida olingan bilimlardan quyidagicha topshiriqlardan foydalanish mumkin:

Masalan: sinf xonasining planini tuzing. Sinf doskasining, polning maydonini xisblab chiqing. Tajriba ishlari jarayonida biz ijodiy mazmundagi bir qator masala va topshiriqlardan foydalandik. Masalan: sharti to'la berilmagan, lekin savol qo'yilgan masala, masalani tuzish va qayta o'zgartirish bo'yicha topshiriq; teskari masalalar tuzish va Yechish. Masalan: Yechimiga qarab masala tuzing:

- 1)  $120:2=60$  (s) - seshanba kuni terildi
- 2)  $60+25=85$  (s) - chorshanba kuni terildi

Ushbu yechim bo'yicha quyidagicha izohli masala tuzish mumkin:

«Dushanba kuni 120 s meva terildi, seshanba kuni esa undan ikki marta kam, chorshanba kuni seshanba kunidan 25 s ko'p meva terib olindi. Chorshanbada necha sentner meva terilgan?» Ushbu masala yuzasidan ishni davom ettirish mumkin. Jumladan, boshlang'ich shartni o'zgartirish orqali yangi masala tuzish ishlari olib borilishi mumkin. Masalan, masalani bajargach, o'qituvchi birinchi amalni o'zgartiradi ( $120 \cdot 2$ ;  $120 + 2$ ;  $120 - 2$ ), o'zgartirish kiritish talab etiladi.

1. «Dushanba kuni 120 s meva terib olindi, seshanba kuni bundan ikki marta ko'p, chorshanba kuni seshanbadan 25 s ortiq meva terildi. Chorshanba kuni necha sentner meva terilgan?»

2. «Dushanba kuni 120 s meva terildi, seshanbada undan 2 s ko'p, chorshanbada seshanba kunidan 25 s ortiq meva terilgan bo'lsa, chorshanba kuni necha sentner meva terib olingan?»

3.«Dushanba kuni 120 s, seshanba kuni dushanbadan 2 s kam, chorshanbada seshanbadan 25 sentner ko'p meva terildi. Chorshanba kuni necha sentner meva terib olingan?»

So'ngra masalalar taqqoslanadi va ularning o'xshash va farqli tomonlarining xossalari aniqlanadi. Mazkur masalani qayta tuzish ishlari boshqacha tarzda olib borilishi mumkin. Masalan, ikkinchi amal belgisi o'zgartirilishi mumkin (ko'paytirish amali ayirish belgisi bilan), bolalarga esa masalaning savolini o'zgartirib berib uni uchta usulda Yechish mumkin bo'lsin.

## **TAJRIBA-SINOV ISHLARI**

Tajriba-sinov ishlari Oltiariq tumanidagi 26-maktabning 3”A”-sinfida o’tkazildi.

Ma’lumki, boshlang’ich sinfdanoq o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish xalq ta’limi xodimlari oldida turgan yechimi kutilayotgan dolzarb masalalardan biridir. Shunday ekan, boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun asosiy vosita hisoblanadi. Masalani yechibgina qolmay, ularni shartiga o’zgartirish kiritish orqali hosil bo’lgan masalalardan ta’lim jarayonida foydalanish boshlang’ich sinf o’quvchilarining ma’lum mavzu yuzasidan o’zlashtiriladigan bilim, ko’nikma va malakalarini mustahkamlash bilan birga ularning tafakkurini o’stirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, masala shartini va matnini o’zgartirish yordamida o’quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

3”A”-sinf o’quvchilari orasida I – II chorakda darslarda masalani shartini va matnini o’zgartirish haqida dastlabki ma’lumotlar berildi. So’ngra quyidagi ko’rinishdagi variantlar bo’yicha nazorat ishi olindi:

Masala shartini va matnini o’zgartiring.

### **Masala**

Karimda 10 ta, Salimda esa undan 2 marta ko’p daftar bor. Ikkalasida qancha daftar bor?

### **Baholash mezoni**

Faqat masalani yechgan bo’lsa 3 ball, masala shartini o’zgartirgan bo’lsa 4 ball, masala matnini o’zgartirgan bo’lsa 5 ball.

a) masala yechimi:

1) Salimda nechta daftar bor?

$$10*2=20$$

2) ikkalasida nechta daftar bor?

$$10+20=30$$

Javob: 30 ta

b) masala shartini o’zgartiramiz:

Karimda 10 ta, Salimda esa undan 2 marta kam daftar bor.

Yechish:

1) Salimda nechta daftar bor?

$$10:2=5$$

2) ikkalasida nechta daftar bor?

$$10+5=15$$

Javob: 15 ta

v) masala matnini o'zgartiramiz:

Karimning daftari 10 ta. Salimning daftari esa Karimnikidan 2 marta kam bo'lsa, ularning qancha daftari bor?

(Masala matni o'zgardi, lekin uning mazmuni o'zgargani yo'q.)

O'tkazilgan nazorat natijasida 27 ta o'quvchining o'rtacha balli 3,1 ball bo'ldi.

Ulardan 2 tasi 5 ball, 6 tasi 4 ball oldi.

III va IV choraklarda shu sinfda har bir matematika darsida berilgan masalalarning yechimini topibgina qolmay, ularning sharti va matni o'zgartirilgan.

Masala shartini va matnini o'zgartirish usulini o'quvchilarda to'g'ri shakllantirish maqsadida quyidagi mashlar majmuasi yaratildi:

### **Masala.1**

Konsert zalida 650 ta joy, 26 qator bor. Har bir qatorda nechta joy bor?

### **Masala.2**

Uchta bir xil 16 qavatli bino qurilgan, har bir qavatda 20 ta xonodon bor. Uchta uyda 180 ta bir xonali, 270 ta ikki xonali xonodon bor. Uchala uyda nechta uch xonali xonodon bor?

### **Masala.3**

Do'konga ikki va uch g'ildirakli 36 ta velosiped olib kelindi. Agar ularning g'ildiraklar soni jami 91 ta bo'lsa, unda nechta uch g'ildirakli va nechta ikki g'ildirakli velosipedlar olib kelingan?

### **Masala.4**

Jami xonodonlar 28 ta, xonalar soni esa 88 ta. Nechta 4 xonali va nechta 3 xonali xonodonlar bor?

### **Masala.5**

Yo'l nazoratchilari uchun jami 10 ta "Tiko" va ikki g'ildirakli motosikl olib

kelindi. Agar ularning g'ildiraklar soni 62 ta bo'lsa, nechta "Tiko" va nechta motosikl olib kelingan?

### **Masala.6**

Tomoshabinlar zalining har bir qatorida teng miqdorda 750 ta stul bor. Agar har bir qatorga yana 5 tadan stul qo'yib, qatorlar sonini 4 taga kamaytirilsa, unda tomoshabinlar zalidagi stullarning umumiy miqdori avvalgidan  $1/25$  ga ortadi. Har bir qatorda nechta stul bor edi?

### **Masala.7**

Sayohatchi jami 939 km yo'l bosdi. U poyezdda 18 soat, paroxodda 6 soat, avtomobilda esa 5 soat yurdi. Poyezd tezligi paroxod tezligidan 16 km/s, avtomobil tezligidan 25 km/s ortiq. Avtomobilning tezligini toping.

### **Masala.8**

Ekspeditsiya 4550 km gat eng yo'lni uch qismga bo'lgan holda bosib o'tdi. Birinchisi 450 km qisqaroq, uchinchisi esa birinchisi va ikkinchisi birga olingandagi masofadan 2 marta ortiq. Yo'lning oxirgi qismi 74 soatda, qisman 35 km/s tezlik bilan poyezdda, qisman 45 km/s tezlik bilan avtomobilda bosib o'tilgan. Avtomobilda necha soat yurilgan?

### **Masala.9**

Poyezd A bekatidan B bekatiga qarab harakat qilmoqda. Birinchi bekatdan S bekatigacha 240 km masofani poyezd 60 km/s tezlik bilan bosib o'tdi. Qolgan S bekatidan B bekatigacha bo'lgan yo'lni avvalgi tezlikda 1 soat kam vaqt sarflab bosib o'tdi. S bekatdan B bekatgacha bo'lgan masofani toping?

Yuqoridagi amalga oshirilgandan so'ng yana 3"A"-sinfda quyidagi nazorat ishi olindi:

Masalani shartini va matnini o'zgartiring.

### **Masala**

Konsert zalida 900 ta joy va 30 ta qator bor. Har bir qatorda nechta joy bor?

Masala javobi:

- 1) masala shartini o'zgartiramiz:

### **Masala**

Konsert zalida 900 ta joy bor. Agar har bir qatorda 45 ta joy bo'lsa, zalda hammasi bo'lib nechta qator bor?

Masala matnini o'zgartiramiz:

Konsert zalida 900 ta joy bor. Zalda hammasi bo'lib 30 ta qator bo'lsa, har bir qatorda nechta joy bor?

O'tkazilgan nazorat natijasi quyidagicha:

27 ta o'quvchining o'rtacha balli 3,9 ball bo'ldi. Ulardan 4 tasi 5 ball, 10 tasi 4 ball oldi.

Bulardan ko'rindiki, o'tkazilgan uslubiy ishlar yaxshi samara berdi.

## **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Oltiariq tumanidagi 26- mактабда о`тказилган тажриба - синов исхларига асосланиб quyidagi xulosa va tavsiyalarni berishni lozim deb topdik:

- I. 1- sinfdan boshlaboq o`quvchilarni ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish maqsadida bir va ikki amal bilan yechiladigan masalalar shartini o`zgartirishga o`rgatish yaxshi samara beradi.

Buni qanday amalgam oshirishni quyidagi misolda ko`rib chiqaylik:

Masala. Bir metro vagonida 60 nafar, ikkinchisida unga qaraganda 18 nafar kam yo`lovchi bor. Ikkala vafonda necha nafar yo`lovchi bor?

Yechish:

- 1) Ikkinchi vagonda nechta yo`lovchi bor?

$$60 - 18 = 42$$

- 2) Ikkala vagonda nechta yo`lovchi bor?

$$42 + 60 = 102$$

Javob: 102ta

Masala shartini o`zgartirib, quyidagi masalani xosil qilamiz:

Masala. Bir metro vagonida 60 nafar, ikkinchisida esa undan 18 nafar ortiq yo`lovchi bor. Ikkala vagonda necha nafar yo`lovchi bor?

Yechish:

- 1) Ikkinchi vagonda nechta yo`lovchi bor?

$$60 + 18 = 78$$

- 2) Ikkala vagonda nechta yo`lovchi bor?

$$78 + 60 = 138$$

Javob: 138ta

Bu masala sharti yana hohlagan usulda o`zgartirish mumkin.

- II. Masala shartini o`zgartirib, Berilgan masaladan ko`proq amal bilan yechiladigan masalalar xosil qilishga e`tabor berish zarur.

Masalan,

Masala. Konsert zalida 900ta joy va 30qator bor. Har bir qatorda nechta joy bor?

Yechish:

$$900 : 30 = 30$$

Javob: 30ta

Masala shartini o`zgartiraylik.

Masala. Konsert zalida 900ta joy va 27 qator bor. Qatorning bir nechta to`liq emas. Ularda 19ta joy bor. Har bir qatorda nechta joy bor?

Yechish:

- 1) Hammasi bo`lib nechta joy bor?

$$900 - 19 = 891$$

- 2) Har bir qatorda nechta joy bor?

$$891 : 27 = 33$$

Javob: 33ta.

III. Masala matnini o`zgartirish orqali o`quvchilarni ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish mumkin ( masala moxiyati o`zgarmaydi)

Masala. Akrom 10ta daftar uchun ikki ming so`m to`ladi. Agar ruchka daftardan 100so`m qimmat bo`lsa, 15ta ruchka necha so`m turadi?

Yechish:

- 1) Bitta daftar necha so`m turadi?

$$2000 : 10 = 200$$

- 2) Ruchka necha so`m turadi?

$$200 + 100 = 300$$

- 3) 15 ta ruchka necha so`m turadi?

$$300 * 15 = 4550$$

Javob: 4550ta

Bu masala shartini o`zgartirmay, uni matnini o`zgartiraylik.

Masala. Barcha qalamlar qiymati 2000 so`m. Qalamlar soni 10ta. Ruchkalar narxi qalamnikidan 100so`m ortiq. 15ta ruchka necha so`m turadi?


Bunday masalar o`quvchilarning masala tuzish malakasini rivojlantiradi.

IV. Masala matni tasavvur qilish shaklini o`zgartirish – modellar qurish yordamida o`quvchilarning mustaqil fikrlashlari o`sadi. Buni quyidagi masalada ko`rib chiqaylik.

**Masala.** Birinchi do'konga 56 kg, ikkinchi do'konga esa undan 12 kg kam go'sht keltirildi. Ikkala do'konga hammasi bo'lib necha kilogramm go'sht keltirilgan?

### Masalaning modellari

$$\boxed{1\text{-do`kon}} + \boxed{2\text{-do`kon}} = \boxed{\text{hammasi}}$$



### Masalaning qisqa yozuvi:

1-do'konga – 56 kg go'sht

2-do'konga – undan 12 kg kam go'sht

Hammasi – ? kg go'sht

### Masalaning matematik modeli

$$a + b = s$$

### Yechish rejasi:

1.Ikkinci do'konga necha kilogramm go'sht keltirilgan?

2.Ikkala do'konga jami necha kilogramm go'sht keltirilgan?

### Yechilishi:

1)  $56 - 12 = 44$  (ikkinci do'konga keltirilgan go'sht massasi)

2)  $56 + 44 = 100$  (ikkala do'konga jami go'sht massasi)

**Javob:** Ikkala do'konga 100 kg go'sht keltirilgan.

V. Masalalarini tenglama tuzib, Yechish ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga sabab bo'ladi.

Masala. O'quvchi bir son o'yladi. Agar uni 4ga ko'paytirilsa, ko'paytmaga esa 8soni qo'shilsa va hosil bo'lgan yig'indini 2ga bo'linsa, u holda 10 hosil bo'ladi. O'quvchi qanday sonni o'ylagan?

Yechish: O'yangan son x deb belgilanadi. Shartga ko'ra

$$(4x+8):2 = 10$$

$$4x+8=20$$

$$4x=20-8$$

$$4x=12$$

$$x=3$$

Javob: O'quvchi 3 sonini o'ylagan

Yuqoridagi usullarga masalani turli xil usulda va masalani ratsional usulda Yechish metodlarini xam kiritish mumkin.

Yuqoridagi tavsiyalardan boshlang`ich sinf o`qituvchilari o`z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I. A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”, T – 1998.
2. I. A. Karimov “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”, T – 1998.
3. I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, T – 1998.
4. I. A. Karimov “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T – 2011
5. I. A. Karimov “O’zbek xalqiga tinchlik va ominlik kerak” T-2013
6. I. A. Karimov “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida hizmat qilish – eng oliv saodatdir ” T-2015
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 24 yilligiga bag’ishlangan marosimdagい so`zi // Xalq so`zi 2015 yil 1-sentabr.
8. “Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichiga ko’tarishdan iborat ”
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23-yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagい ma`ruzasi. – Xalq so`zi 2015 yil 6-dekabr
- 10.“Bosh maqsadimiz – Mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, hususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” - O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi mahruzasi // Farg`ona haqiqati 2016 yil 20 yanvar.
- 11.Bikbayeva N. U, Sidelnikova R. I, Adambekova G. A “Boshlang’ich sinflarda maematika o’qitish metodikasi”, T – 1996.
- 12.Jumayev M. E. “Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasidan laboratoriya mashg’ulotlari” T –2008.
- 13.Jumayev M. E. “Matematika o’qitish metodikasidan praktikum” T – 2003.

- 14.Tadjiyeva Z, Jumayev M. E. “matematika o’qitish metodikasi” T – 2005.
- 15.L. P. Stoylova, A. M. Pishkalo, “Boshlang’ich matematika kursi asoslari” T – 1991.
- 16.N. Xamedov, Z. Ibragimova, T. Tasetov “Matematika” T – 2007.
17. M. Ahmedov, N. Abdurahmonova , M. Jumayev 1-sinf “Matematika” Toshkent -2015
- 18.N. U. Bikbayeva, E. Yangabayeva “Matematika, 1 – sinf” Toshkent 2014
- 19.N. Abdurahmonova, L. O’rinboyeva “Matematika 2 - sinf” Toshkent – 2014. (ikkinchi nashr).
- 20.19.N.Abduraxmonova , L.O`rinboyeva “Matematika 2 - sinf” T - 2015
21. Burxonov, O’. Xudoyorov, Q. Norqulova“Matematika 3 - sinf” “Sharq” Toshkent – 2014. (Ikkinci nashr)
- 22.S.Burxonova , O` xudoyorov, Q. Norqulova “Matematika 3 - sinf”T -2015
- 23.N. U. Bikbayeva, E. Yangabayeva, K. M. Girfanova, “Matematika 4 – sinf” Toshkent – 2015. (ikkinchi nashr)
- 24.N. U. Bikbayeva, E. Yangabayeva, K.M.Girfanova “Matematika 4 – sinf” T - 2013
- 25.Sayidahmedov N, “Yangi pedagogik texnologiya” T – 2003.
- 26.Y.Xudoyorova, “Model asosida masalalar Yechish” Boshlang’ich ta’lim, 2010 – yil 4 – son.
27. G.Ergasheva “Masalalar ustida ishlash” Boshlang`ich ta`lim -2011 yil 1-soni
28. M.Toshpo`latova “Shartiga o`zgartishi kiritilgan masalalar” Boshlang`ich ta`lim -2011 yil 9-soni
29. F.Qosimov , M.Qosimova “Masala Yechishning ratsional usuli” Boshlang`ich ta`lim -2012 yil 3-soni
- 30.[www.edu.uz](http://www.edu.uz)
- 31.[www.zionet.uz](http://www.zionet.uz)
- 32.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)